

ISSN 2992 - 9091



ISLOM MA'RIFATI

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom
institutining ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-
adabiy jurnali



№1 2025



ISLOM MA'RIFATI

№1
2025

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutining
ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-adabiy jurnali



TAHRIR HAY'ATI:

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR

*O'zbekiston musulmonlari idorasi
raisi, muftiy, O'zbekiston xalqaro
islom akademiyasi faxriy doktori*

Muhammadolim MUHAMMADSIDDIQOV

Siyosiy fanlar doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Farxod KARIMOV

Siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Ilhom BEKMIRZAYEV

Tarix fanlari doktori (DSc), professor

Ashirbek MO'MINOV

*Tarix fanlari doktori, professor (L.N. Gumilev
nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti)*

Rafik MUXAMETSHIN

*Rossiya islom universiteti rektori, siyosiy fanlar
doktori, professor (Rossiya)*

Mustafa KARATAŞ

*Istanbul universiteti ilohiyot fakulteti Hadis
kafedrası professori (Turkiya)*

Rashid ZOHIDOV

Filologiya fanlari doktori, professor

Ne'matullo MUHAMEDOV

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY

Ilohiyot fanlari doktori (Misr)

Shovosil ZIYODOV

Tarix fanlari doktori (DSc)

Toji NOROV

Falsafa fanlari doktori

Ma'murjon ERKAYEV

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Ulug'bek HASANOV

*Islomshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD)*

Uktam POLVONOV

*Tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent*

Abdurasul ABDULLAYEV

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha
qo'mitaning 2025-yil 19-martdagi 03-07/1807-sonli
xulosa xatiga asosan tayyorlandi.*



Muassis

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTI

Bosh muharrir:

Uyg'un G'AFUROV

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Bosh muharrir o'rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sirotilloxon MUHAMMADSOLIYEV

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

"Islom ma'rifati" ilmiy jurnali O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy attestatsiya komissiyasining 2024-yil 8-maydagi qarori bilan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2023-yil 26-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan № 077254 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:

100002, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Zarqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

E-mail: islom-instituti@umail.uz

Web-sahifa: <https://oliymahad.uz/>

Telefon: (+99871) 227-42-37

MUNDARIJA **QUR'ON ILMLARI**

Muhabbatxon AGZAMOVA.

Qur'on oyatlari va hadislarda silai rahmga e'tibor va uning jamiyat hamjihatligidagi o'rni.....4

ISLOM AQIDASI

Jurabek SODIKOV.

"Ta'vilot ahlis sunna" da aqliy dalillarning qo'llanish omillari.....13

ISLOM HUQUQI

Nigora XAKIMOVA.

Sahih hadislarning islom huquqida qo'llanishida uzluksiz rivoyat silsilasining ahamiyati.....22

Ibrohim USMANOV.

Hakim Termiziy asarlarida shar'iy hiylalar mavzusi muhokamasi.....32

ISLOM TARIXI

Pirnazar RAJAPOV.

Buyuk Saljuqiylar davri(1038-1157)da Xurosonda islom ilmlarining rivoji.....42

Sohibjon UMMATALIYEV.

O'rta asrlarda musulmon tarixnavisligi va uning yo'nalishlari.....51

Nilufar SAIDAKBAROVA.

Ahmad ibn Muhammad ibn Abu Bakr Hanafiy va uning ilmiy merosi.....60

TASAVVUF

Nilufar TUYCHIYEVA.

Fiqh va tasavvuf munosabatiga doir tahlillar.....69

SIYOSATShUNOSLIK

Behzodbek SOIPOV.

Musulmon mamlakatlarda davlat va din munosabatlaridagi muammolar: diniy radikalizm.....78

Sirotilloxon MUXAMMADSOLIYEV.

Siyosiy transformatsiyaga doir nazariy yondashuvlar tahlili.....90

TARIX

Muslim ATAYEV.

Ustrushana shaharlarining mintaqa siyosiy-madaniy yaxlitlashuvidagi roli.....99

MANBASHUNOSLIK

Ilhomjon G'OFUROV.

Hanafiy mazhabi rivojida "Hidoya" asarining ahamiyati.....110

Nilufar TUYCHIEVA

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islomshunoslik va sivilizatsiyasini o'rganish
ICESCO" kafedrasida dotsenti.
A.Qodiri 11, Abdulla Qodiriy
ko'chasi 78, 100011, Toshkent
e-mail: nilufartuychieva79@gmail.com*

FIQH VA TASAVVUF MUNOSABATIGA DOIR TAHLILLAR

ANALYSES ON THE RELATIONSHIP BETWEEN FIQH AND SUFISM

KIRISH

Fiqh islom dinining hayotda aks etgan amaliy hukmlarini ifoda etar ekan, tasavvuf esa islomning ma'naviy hayot tarzini, axloq normalarini, ruhiy tarbiya masalalarini o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan fiqh islomning zohiriy aksi tasavvuf esa botiniy qismi sifatida ko'riladi. Bugungi kungacha bu ikki soha o'rtasidagi aloqalar sog'lom yoki aksincha bo'lishining sabablarini o'rganish va yechimlar berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Fiqh va tasavvuf o'rtasidagi "mo'tadil o'rtalik"ni topish musulmon jamoalar o'rtasida iliq munosabatlarning shakllanishiga asos bo'ladi. Bugungi kunda islomshunoslar orasida yuqoridagi ikki sohaning aloqadorligi bilan bog'liq bir qator tadqiqotlar amalga oshirilayotganining sababi ham shunda.

ASOSIY QISM

Imom Abu Hanifaga ko'ra fiqh "الفقه معرفة النفس ما لها وما عليها" ya'ni, fiqh ilmi har bir mukallaf kishining o'z foydasiga va zarariga bo'lgan narsalar haqidagi shariat hukmlarini bilib olishidir. Abu Hanifaning ta'rifi ulumi shar'iya aniq shakllanib, bir-biridan ajralmagan zamonda berilgani e'tiboridan

e'tiqod va axloq ilmlarini ham qamrab oladi. Lekin keyinroq axloq va e'tiqodga tegishli me'yorlar har qaysisi bir ilm sifatida fiqhdan ajrala boshlab, ilmu tavhid yoki kalom ilmi va ilmu axloq nomlari bilan alohida fanlarga aylandi, fiqh esa ahkomi far'iya va uning o'rganish uslubini o'z ichiga qamrab oldi. Shuning uchun oxirgi davr faqihlari Imomi A'zam ta'rifiga "amalan" (amaliy jihatdan) so'zi qo'shili-shini zarur deb topdilar va mazkur ta'rif quyidagi shaklni oldi: "Fiqh ilmi – har bir mukallaf kishining amaliy jihatdan foydasiga va zarariga bo'lgan narsalar haqidagi shariat hukmlarini bilib olishdir" (Nizomiddin Shoshiy, 2016:9).

Tasavvufga esa Abu Muhammad Jaririy (vaf. 933) shunday ta'rif bergan: "Tasavvuf go'zal axloq bilan axloqlanishning va barcha yomon ishlardan uzoq bo'lishingdir" (Abu Nasr Sarroj, 1960:46).

Fiqh va tasavvuf islom ilmlari orasida muhim o'ringa ega bo'lgan ikki yo'nalishdir. Islomning ishonch, amal va axloq uyg'unligi doirasida rivojlanishiga imkon beruvchi funksiyalarga ega bu ikki soha bir-birini to'ldiruvchi jihatlariga egaligi bilan ahamiyatlidir. Shu sababli tarixiy jarayonlarda zohir-botin, haqiqat-shariat, qol-hol bilan bog'liq turli bahslar ko'zga tashlanadi. Islom bilimlari shakllangan ilk davrlarda aqida ilmi "fiqhi akbar", tasavvuf ilmi "fiqhi avsat" va fiqh ilmi esa "fiqhi asg'ar" (Belhaj A., 2013:99) nomi bilan atalishi har uchala ilmning funksional vazifasini ifoda etgan. Hijriy ikkinchi asrda tasavvuf nomini olgunga qadar bu ilm "fiqhi botiniy", "fiqhi vijdoniy", "ilmi hol" kabi nomlar bilan atalgan edi (Abdurrahmân Ibn Haldûn, 1980:521.; Ali Sâmîn Neşşâr, 2000:30).

Ilk marotaba tasavvufning "fiqhu botin" deb atalishi molikiy faqihlaridan bo'lgan Ibn Juzey (vaf.1340)ga tegishli (Dursun.A., 2020:42). Unga ko'ra tasavvuf fiqhning tarkibiy qismida bo'lib, furu' "ahkomu zohir", ta-

savvuf esa “fiqhu botin” deb ataladi. Uning bu qarashlaridan ta'sirlangan Ibn Xaldun (vaf. 1406) “fiqhu zohir” va “fiqhu botin” (Ibn Xaldun, 1996:44) atamasini qo'lladi. Bu yerda bu bo'linishdan maqsad ilmni ikki turga ajratish bilan bog'liq edi. Zohir ilmi vositali bo'lib, insonning tana a'zolari bilan bog'liqdir. Botin ilmi esa bevosita ilm sanalib, qalbga aloqadorligi bilan zohir ilmidan farq qiladi.

Tasavvuf va fiqhning o'zaro aloqasini o'rganigan olim va tadqiqotchilarni ilmiy ishlari bu ikki sohani turli jihatlariga ahamiyat qaratgan holda amalga oshirilganini ko'rish mumkin. Masalan, ayrim olimlar tasavvuf va fiqhning ijobiy yoki salbiy munosabatlari

haqida yozsalar, ba'zilar klassik yoki hozirgi davr muammolaridan kelib chiqib bir-biriga qiyos qilganlar, boshqalari esa ma'lum mavzularni ajratib ko'rsatgan holda ularning shar'iy yoki shariatdan tashqari ekanini tahlil qilishga uringanlar.

O'zbek olimlaridan I.Usmonov fikriga ko'ra sufiy va faqihlar o'rtasidagi kelishmovchilikning asosi ularning har biri o'z diniy qarashlarini haq deb bilishi natijasida vujudga kelgan. Huquqshunoslar sufiylikni dinga yangilik kiritishda ayblagan bo'lsalar, tasavvuf vakillari huquqshunoslarni “harfiy yondashuv” va masalalarning ma'naviy jihatlariga bee'tiborlikda aybladilar (Usmonov I., 2022:29).

Annotatsiya. Maqolada tasavvuf va fiqh o'rtasidagi o'zaro munosabatlar hamda ularning islomiy ilmlar tizimidagi ahamiyati tahlil qilingan. Hijriy uchinchi asrda tasavvufda paydo bo'lgan “sahv” va “sukr” konsepsiyalari hamda ular atrofida bahslar shariat doirasida hal qilingani ko'rsatilgan. Junayd Bag'dodiy “sahv” g'oyasi orqali tamkinlilikni, Boyazid Bistomiy esa “sukr” orqali ilohiy muhabbat va fano konsepsiyasini ilgari surgani bayon qilingan. Tanqidlarni kamaytirish maqsadida Junayd Bag'dodiy tasavvufni shariatga uyg'un shaklda rivojlantirib, sunniy tasavvufning asosini qo'ygani ochib berilgan.

Shuningdek, sufiylarning ayrim tanqidlarga javob sifatida uzlat o'rniga suhbatni targ'ib qilishlari, bu esa, xususan, naqshbandiylik tariqatida muhim ahamiyat kasb etgani ta'kidlanadi. Bundan tashqari, fiqhning zohiriy hukmlarga cheklanishiga nisbatan sufiylarning tanqidlari, ularning inson qalbiga ham e'tibor berish zarurligini ilgari surib, “fiqhu botin” tushunchasini shakllantirganliklari bayon etilgan.

Abstract. The article analyzes the relationship between Sufism and jurisprudence and their significance in the system of Islamic sciences. It is shown that the concepts of “sahw” and “sukr” that emerged in Sufism in the third century AH and the disputes surrounding them were resolved within the framework of Sharia. It is stated that Junayd Baghdadi promoted restraint through the idea of “sahw”, and Bayazid Bistami promoted the concept of divine love and immortality through “sukr”. In order to reduce criticism, it is revealed that Junayd Baghdadi developed Sufism in a way that was consistent with Sharia and laid the foundation for Sunni Sufism. It is also emphasized that Sufis, in response to some criticisms, promoted dialogue instead of dialogue, which was particularly important in the Naqshbandi order. In addition, the Sufis' criticism of the limitation of fiqh to external rulings, and their formulation of the concept of “inward fiqh” by emphasizing the need to pay attention to the human heart, are described.

Kalit so'zlar: tamkin, sukr, sahv, fiqhu zohir, fiqhu botin, fiqhu vijdoniy, vajd, sunniy tasavvuf, hukmiy oyatlar.

Key words: somposure, intoxication, sobriety, outer jurisprudence, inner jurisprudence, intuitive jurisprudence, ecstasy, sunni sufism, legal verses.

Bugungi kunda amalga oshirilgan xorijiy tadqiqotlardan biri Akif Dursunning “Tasavvuf fiqh munosabati” (Dursun.A., 2020:347) deb nomlangan dissertatsiyasi bo'lib, bu tadqiqot ishi ko'rilayotgan mavzuga to'liq bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Ishda dastlab fiqh va tasavvuf atamaları etimologik jihatdan ko'rib chiqilgan, tarixiy davrlari ham tartib asosida berilib, keyingi qismida fiqh va tasavvufning nazariy qismi tahlil qilingan. Har ikki sohaning ko'zga ko'ringan vakillarini qarashlari bayon qilingan. Bu nazariy qism sahobalar davridan hijriy 5-asrgacha bo'lgan davrni qamrab olgan. Bundan tashqari, tasavvufning fiqh bilan bog'liq masalalari ham yoritilgan. Tadqiqotning so'ngi natijalariga ko'ra, tasavvuf ilmi shakllangan ilk davrlarda faqihlar, muhaddislar va mutakallimlar tomonidan tanqidga uchragani ta'kidlangan.

Mavzuga faqatgina faqihlar nuqtai nazaridan qarash muammoni to'laqonli o'rganishga to'siq bo'ladi. Mutasavviflarning ham bu boradagi fikrlarini o'rganish ob'yektiv yondoshuvni keltirib chiqaradi. Mutasavviflar faqihlarni dinning zohiri bilan cheklangan kishilar deb baholab, shaklga moyil ekanliklarini ta'kidlaydilar. Shunga qaramasdan, sufiylar shariatsiz haqiqatga erishish mumkin emasligini ham inkor etmaydilar.

Hoji Bayram Basher tomonidan amalga oshirilgan “Sunnii tasavvufning shakllanish jarayonida shariat va haqiqat munosabati” (Başer.H., 2013:173) deb nomlangan doktorlik dissertatsiyasi ham yana bir muhim izlanishlardan hisoblanadi. Muallifga ko'ra tasavvufning diniy bir bilim sohasi sifatida yuzaga chiqish jarayonida tanqidlarga uchrashi fiqh, hadis va aqida ilmlarida ham kuzatilgan jarayondir.

Muallif tanqidchilarga munosabat bildirar ekan bir qancha yuksak cho'qqiga erishgan faqihlarning fiqhni tugal o'rgangandan so'ngira tasavvufga yo'nalganini izohlab, tasavvuf o'rganilgan bilimlarga amal bosqichi ekanini

ta'kidlagan. Klassik davr mutasavviflaridan Kalabodiy (vaf. 990), Hujviriy (vaf. 1072) va Qushayriy (vaf.1072)lar hissasi tufayli tasavvuf va boshqa diniy bilimlar o'rtasida o'zaro yakdillik, shariat va tasavvufning aloqadorligi aniqlangani qayd etilgan (Başer.H., 2013:266). Shu o'rinda imom Molikning “Kim faqih bo'lib sufiy bo'lmasa fosiqdir, kimki sufiy bo'lib faqih bo'lmasa zindiqdir, kim ikkisini birlashtirsa haqiqatga erishadi” (Ebū'l bbās bin Zerrūk, 2025) degan so'zlarini keltirish o'rinli bo'ladi.

Turk olimi Akif Dursun “Tasavvuf va fiqh munosabati” kitobida Abu Bakr Varroq Termiziyni qiyidagi fikrini keltiradi: “Zuhdga (halollik, poklikka) asoslanmagan, faqat fikrga qanoatlangan ilm zindiqlikka olib keladi. Fiqhga (shariatga) asoslangan, ammo vara'ga (poklikka) asoslanmagan ilm sofliğini yo'qotadi” (A.Dursun, 2020:97).

Xayriddin Karamoniyni “Shariatsiz tasavvuf bo'lmas” (Karaman.H., 2019:9-10) nomli kitobida tasavvuf yo'lida ekanliklarini iddao qilgan ba'zi kishilar “shariatga nomuvofiqlik”da ayblashdan moddiy manfaat yoki dindan uzoqlashtirish maqsadida foydalan-ganlar degan fikr ilgari surilgan. Barcha islomga oid manbalarda ayrim sufiylar ma'lum bir yuqori maqomlarga erishgach shariat ahkomlarini shart emas deb hisoblashlari qoralanadi. Payg'ambar (alayhissalom)dan ham shariatga xilof qilmagan holda ixlos va ehson martabasida bo'lishni mashru' ko'rishlari ta'kidlangan. Muallif shariat tamoyillari va sufiylik amaliyoti o'rtasidagi nomuvofiqlik, kelishmovchilik aynan shu yerda deb biladi. Bu tadqiqotda umuman olganda, tariqat, tavassul, robita, ilhom, ilmi ladun kabi tasavvufiy tushunchalarning ta'rifi va shariatga muvofiq yoki emasligi taniqli mutasavviflar va islom faylasuflarining qarashlari orqali tushuntirishga ahamiyat qaratilgan.

MUHOKAMA

Tasavvuf va fiqh o'rtasida g'oyaviy jihatdan yaqin nuqtalar mavjudligini e'tibordan

chetda qoldirmaslik zarur. Bu ikki bilim sohasini ayni bir nuqtada birlashtirgan asos muhim ahamiyatga ega. Ilk islom davrida fiqh, aqoid va tasavvufning bir-biridan ajralmaganini bejiz emas. Zamonaviy tadqiqotlar bilan birga klassik tasavvuf manbalarida ham bu mavzu tilga olinadi. Masalan, Hujviriy va Qushayriy kabi klassik tasavvuf vakillarining fikriga ko'ra haqiqat bilan quvvatlanmagan shariat ahamiyatsiz bo'lgani kabi shariat chegaralamagan haqiqat ham maqbul emas. Hujviriy "shariat bilan haqiqatni birlashtirish" degan tushunchaga qarshi chiqar ekan u ikkisini aslida bir maqsadga qaratilgan yakdillik deb aytadi (Abul Hasan Hujviriy, 2007:440).

Imom Rabboniy esa shariatni uch juzga bo'ladi: ilm, amal va ixlos. Tariqat va haqiqat ixlos shaklida shariatga yordam etuvchidir. Botin zohirni tugal qiladi, uni kamolga yetqazadi. Ikkisi orasida qilchalik ayriliq yo'q. Misol ila anglatilsa til bilan yolg'on so'zlamaslik shariat, yolg'onni ko'ngildan sidirib chiqarish tariqat va haqiqatdir. Shariat va tariqat bir-biri bilan to'liq quvvatlidir (Imom Rabboniy, 2023:130).

Bir so'z bilan aytganda tasavvuf va fiqhning o'zaro aloqadorligi uzilishi yoki o'zaro ters bo'lishi mumkin emas. Yetuk faqihlarning mukammallik kasb etish maqsadida tasavvufni qo'llaganlaridek, ko'zga ko'ringan tasavvuf namoyandalari ham o'z vaqtida faqih bo'lganlari yuqoridagi fikrning dalilidir. Bu ikki bilim sohasi lafzda turli xil ifodalan-sa-da, mohiyat jihatidan insonni komillikka erishtirishni maqsad qilgan.

Tasavvufning fiqh bilan munosabati nafaqat fan sifatida ko'zga tashlanadi, balki usul va furu'da ham aks etadi. Usul masalasida tasavvuf vakillari Qur'on va sunnatga tayanish barobarida kashf va ilhom kabi sub'yektiv tajribalarni bilish manbai sifatida qabul qilishlarini usulan tanqid qilganlar. Bundan tashqari payg'ambarlarning ruhlaridan ta'lim olish, tush orqali muammolarni hal qilish kabilardan tanqidga uchragan mavzulardandir.

Muhim masala sifatida tasavvufdagi ilm olish usullari nafaqat faqhilar tomonidan balki aqida ulamolari tarafidan ham tortishuvlarga sabab bo'lgan. Ma'lumki aqidada an'anaviy ilm besh tuyg'u, xabari sodiq va aql shaklida namoyon bo'ladi. Tasavvufda esa bu besh turga yana uchta tur ilova qilinadi. Kashf, ilhom va tush. Ilmning mana shu oxirgi uch-tasi yuzasidan olimlar orasida tortishuv yuzaga kelgan. Tasavvuf vakillaridan Xoris Muhosibiy, Zunnun Misriy, Boyazid Bistomiy va Abu Said Harrozlar nazdida ilhom eshitish, xabar va aqldan tashqari bilishning asl manbasidir. Jumladan, Abu Homid G'azzoliyning ilhomiy bilimga katta ahamiyat qaratganidan so'ng Abul Mu'in Nasafiy, Najmiddin Nasafiy kabi moturidiya kalom ilmi ulamolari ilhomni qat'iy bilim manbasi bo'lolmasligiga diqqat qaratganlar. Ammo Faxriddin Roziy, Ibn Xaldun, Ibnu Saloh, Shavqoniy, Shahobiddin Olusiy kabi olimlar taqvo sohibi bo'lgan ayrim kishilarga berilgan ilhomni qabul qilinadigan bir ma'lumot manbasi bo'la olishiga mayl bildirganlarini ko'rish mumkin (Yusuf Savqiy Yavuz, 2011:98).

Kalom ilmi vakillari kashf, ilhom va tushni ob'yektiv emas sub'yektiv ilm olish vositasi deb bilib, unga jiddiy qaramaganlar. Sababi esa ilhom va kashfning kelib ketuvchi ilm ekani va barqaror emasligi bilan bog'liq. Sa'diddin Taftazoniy "Sharhul aqoid" (Tarj. Ali Kamol, 1998) asarida ilhom tamoman rad etilgan emasligini ammo hammaga majburiy ham emasligini ta'kidlagan.

Aqida olimlaridan Imom Moturidiyning fikriga ko'ra ilhom qiyinchilik va mashaqqatsiz qalbga kelgan ilmdir. Unga ko'ra bu ilm Allohdan bo'lgani kabi shaytondan ham bo'lishi mumkin. Ammo shaytondan bo'lgani haqiqiy ilhom emas. Allohdan kelganida xayr bor. Allohdan kelgan ilhom, Alloh ilhom orqali yaxshilik va yomonlikni bildirishi, sidqi dildan amal qiluvchilarga yo'l ko'rsatishi, farish-talar vositasida qalbga yaxshilik yetkazishi va yordam qilishidir.

Imom Moturidiy “Ta’vilotul Qur’on” (Abu Mansur Moturidiy, 2023:146) asarida Zuxruf surasining 43-oyati sharhida ilhom haqida quyidagicha ma’lumot beradi. Rasulullohga kelgan vahiy uch turdir: 1. Qur’on – oyatlar nozil qilish orqali. 2. Bayon vahiysi – inson zimmasidagi majburiyatlarni Jabroil orqali yoki boshqa bir vosita bilan bayon qilish. 3. Ilhom – Alloh u zotga tushuntirgan narsa orqali.

Imom Moturidiyga ko’ra haqiqiy ma’noda-gi ilhom faqat Alloh va uning farishtalari tara-fidan beriladi. Masalan hazrati Odamga yara-tilgan vaqtida ismlarning o’rgatilishi ilhom shaklida yoki farishta vositasida bo’lgani kel-tirilgan. Musoning onasiga vahiy qilishi ham ilhom ma’nosida bo’lib, irshod va yo’l ko’rsa-tish ma’nosidadir. Boshqa moturidiylik olim-lari ham aynan shu fikrdalar.

Imom Moturidiydan salkam yuz yil keyin yashagan Abul Yusr Muhammad Pazdaviy il-hom orqali halol va harom masalasi hal qilin-masligini, bu dalil bilan amalga oshirilishi ke-rak bo’lgan masala ekanini ta’kidlagan. Bir kishiga berilgan ilhom halolni harom yoki aksincha haromni halol bo’lishiga asos bo’l-masligini aytgan. Sababi u yashagan davrda soxta tasavvuf vakillari orasida shu kabi ho-latlar kuzatilgan edi (Abu Mansur Moturidiy).

Moturidiylik aqida maktabi olimlaridan Alouddin Samarqandiy ilhomni ikkiga “haq ilhom” va “botil ilhom”ga, Abul Mu’in Nasafiy esa “sahih ilhom” va “fosid ilhom”ga ajratgan-lar. Abul Yusr Pazdaviy va Umar Nasafiyilar Alloh va farishtalar orqali berilgan taqvo ilho-mi bilan birga shayton tarafidan bo’ladigan vasvasa ilhomi ham borligini qayd etganlar.

Mutasavviflardan Horis Muhosibiy, Zunnun Misriy, Boyazid Bistomiy va Abu Said Xarroz kabi sufiylar ilhomni eshitish, xabar va aqldan boshqa ilm turi deb ta’kidlaydilar. Ibn Taymiya ilhomni ilm olish manbai sifati-da tan olmaganlarga uning zaif dalil va fosid qiyosdan kuchli dalil ekanini bayon qilgan. Bu ilmga sufiylar da’vo qilganlaridek, Allohga

itoat, taqvo, imonning quvvatli bo’lishi natija-sida erishiladi. Ilhomga erishgan kishi qar-shisidagi odamni yolg’onchi yoki to’g’riso’zli-gini, taomning halol va haromligini, suhbat-doshining mo’minmi fosiqmi ekanini anglay-digan bo’ladi (Ibn Taymiya, 2005:27-29).

G’azzoliyga ko’ra esa o’rganish uslublarini qo’llamasdan, dalil keltirmagan holda qalbda hosil bo’lgan ilm ilhomdir. Ilhom avliyo va as-fiyoiga xosdir. Vahiy esa anbiyolarga xosdir.

TAHLIL

Sunniy tasavvuf vakillari ham aqida va fiqh ulamolari kabi ilhomni hukmiy masala-larda qo’llashni targ’ib qilmaydilar. Ularga ko’ra ilhom farishta, shayton, nafs va Allohdan kelishi mumkin. Agar farishtadan kelsa ilhom, shaytondan kelsa vasvasa, nafsdan kelsa tu-zoq va Allohdan kelsa haq idrok sanalgan. Shuningdek zohirni tasdiqlamagan har tu-shuncha botil deganlar.

Tasavvufning furu’ masalalarida ham fiqhga yaqinlashuvi bir qancha masalalarda ko’zga tashlanadi. Tasavvuf ahli tanqidga uchragan mavzularni ko’rib chiqish masalaga yanada oydinlik kiritishga yo’l ochadi. Ayrim sufiylar amalga ortig’i bilan ahamiyat qaratib, ilmga befarq bo’lishlari eng katta tanqidlarga sabab bo’lgan mavzulardandir. Shuningdek, samo, raqs, tungi namozlarga keragidan ortiq targ’ib, tahoratta isrof bilan suv qo’llanmalari, muraqqa kiyishlari, bu libosni kiyib bo’lgach ikki rakat namoz o’qish shartligi, kasal bo’l-ganda davolanish o’rniga tavakkul bilan tuza-lishni targ’ib qilish, juma va jamoat namozla-riga, ilm olishga rag’bat qilmasliklari, ko’proq ibodat qilish maqsadi uylanmaslik kabi hat-ti-xarakatlari ilm va shariatdan bexabarlik natijasidir (Mustafa Şeref Aydın, 2023:88).

Yuqorida sanab o’tilgan e’tirozlarga quyi-da berilgan sunniy tasavvuf vakillarining ja-voblarini ko’rib chiqish maqsadga muvofiq-dir. Abu Tolib Makkiy kasallikka chalingan insonning davolanishi ham shar’an ham ta-savvuufan shartligini qayd etgan. Payg’ambar (alayhissalom) ham bemorlik vaqtlarida da-

volanganlari va davolanishga targ'ib qilganlari eng muhim jihat. Bunga dalil sifatida Rasul (alayhissalom)ning tavakkullari eng mukammal shaklda bo'lishiga qaramasdan davolaniganlari (Abu Tolib Makkiy, 1961:944)ni keltirish mumkin. Bir so'z bilan aytganda tasavvuf klassiklaridan bo'lgan Abu Tolib Makkiy va Imom G'azzoliylar davolanish tavakkulga teskari emasligini, davo choralari ko'rish moyaynida tavakkul qilish lozimligini uqtirganlar.

Faqihlar davolanishga chaqiriq bo'lgan hadislarining bir qanchasini dalil sifatida keltirganlar. Ularning ichida mashhurlari Abu Hurayra (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilindi: ***"Nabiy (alayhissalom): 'Alloh qaysi bir dardni nozil qilgan bo'lsa, albatta, uning shifosini ham tushirgandir', dedilar"*** (Buxoriy, 1992:10). Bu hadis nafaqat bemorga tuzalish umidini beradi balki tibbiyot sohasi vakillarini turli yangi kasalliklarga davo topishga undaydi. Ilm va fan rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Davolanish borasida tavakkulni ixtiyor qilgan sufiylarning dalillari ham ayrim hadislariga tayanadi. Ato ibn Abu Raboh (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: ***"Ibn Abbos (roziyallohu anhu)ga: 'Senga jannat ahlidan bo'lgan bir ayolni ko'rsataymi?' dedilar. Men: 'Ha', dedim. Ibn Abbos (roziyallohu anhu): 'Mana bu qora xotin bo'lib, Nabiy (alayhissalom) huzurlariga keldi va: 'Mening tutqanoq kasalim bor. O'sha kasalim kelsa, badanim ochilib qoladi. Allohdan (ketkazishini so'rab) menga duo qiling', dedi. Shunda u zot: 'Agar sabr qilishni xohlasang, senga jannat bo'ladi. Bo'lmasa, Allohga duo qilaman, shifo beradi', dedilar. U ayol: 'Sabr qilaman, lekin tanam ochilib qolmasligi xususida Allohga duo qiling', deganida, Payg'ambar (alayhissalom) uning haqqiga duo qildilar", dedilar"*** (Buxoriy, 1992:11). Bu hadisda kasallik vaqtida davolanmaslik targ'ib etilmayapti balki tanlash imkoni berilmoqda. Xohlasa davola-

nish, xohlamasa sabr qilish. Ba'zi kishilar davosi topilmagan kasallikka chalinganda barcha choralari ko'riladi va ijobiy natija bo'lmasa sabr qilishga chaqirilgan deydilar. Ammo shifosi va imkoni bor kasalliklarni davolashga hadisda ham targ'ib qilinmoqda. Shu sababli ayrim sufiylar da'vo qilganidek kassalanganda faqat duo va sabr bilan chegaralanish bu mantiqsizlik va hadisga ham zid amal bo'ladi. Avval shifoning harakatida bo'lish, barcha choralarni ko'rish kerak bo'ladi. Shunda ham natija bo'lmasa unda duo bilan sabr qilishdan boshqa chora qolmaydi.

Sufiylar ibodatlar bilan aloqalarini ifoda etar ekanlar suvni badanning ichini emas balki faqatgina tashqi qismini tozalashga xizmat qilishi, ichki tomonini esa hayo va tavba bilan poklash mumkinligi haqida gapiradilar. Ularga ko'ra badanning tashqi tarafi kirlanganidek ichi ham kirlanadi. Bu kirlanish dunyoga mayl, nafs istaklarini bajarish sababidan yuzaga keladi. Shu sababdan qalbning ma'nan poklanishi uchun undan mosuvo (haqiqatdan to'suvchi narsalar)ni chiqarish kerak. Sufiylarga ko'ra moddiy bo'lgan suvning ekvivalenti murshidning ma'naviy tarbiyasidir. Bundan sufiylar ba'zi fihiy atamalarning ma'nolarini kengroq bayon qilganlari tushuniladi (Mustafa Şeref Aydın, 2023:331).

Tasavvufning furu'ul fiqh bilan aloqadorligi va ikkisini islom bilimlarining teng qismlari ekanligini ko'rsatib berishga klassik davr mutasavviflari ham katta ahamiyat qaratganlar. Sarroj, Tusi, Kalabodiy, Qushayriy va Hujviriylarning asosiy maqsadlari ham shu bo'lgan. Ular aqida fiqhning asosida shakllangan kabi tasavvuf ham fiqhning ichidan bir qism ekanini ko'rsatishga, uning shar'iyiligi asoslashga harakat qilganlar.

Sarrojning "Luma" asarini yozishdan asosiy maqsad tasavvufning mashru'iyatini asoslashdir. Sarroj boshqa mutasavviflar kabi tasavvuf duch kelgan ilk muammolarni chuqur anglagan edi. Bu muammo tasavvufning diniy bilimlar doirasida bir ilm sifatida shar'iyiligi

masalasi edi. Shu sababli Sarroj tasavvufni islomiy ilmlardan hisoblamagan bir guruh zohir ahliga raddiya sifatida shu asarni ta'lif etishga kirishgan. Shariat ilmini faqatgina fiqh doirasiga kirgan zohiriy amallardan iborat emasligini aksincha shariat fiqh doirasiga kirgan zohiriy amallar va tasavvuf doirasiga kiruvchi botiniy hukmlarning barchasiga berilgan ism ekanini ta'kidlaydi. Bu fikrini asoslashga kirishgan Sarroj tahorat, namoz, zakot, ro'za, nikohlanish, taloq, oldi-sotti, faroiz, had, qasos, va ta'zir kabi amallarni shariatning zohiriy qismiga dalolat qilishini, imon, yaqin, sidq, ixlos, ma'rifat, tavakkul, muhabbat, rizo, zikr, shukur, inoba, taqvo, muroqaba, fikr, xavf va rajo kabi buyurilgan, hasad, gina, riyo va kibr kabi qaytarilgan ma'naviy amallar esa shariatning botiniy jihatini aks ettirishini ifoda qilgan (Serrâc, 2016:22-23).

Sarroj "Luma" asarida ilmlarni tasnif qilgan ekan 3 turga bo'ladi: Qur'on ilmlari, sunnat ilmlari va imon haqiqati ilmlari. Uning nazdida muhaddislar, faqihlar va sufiylar bu yuqoridagi uch ilmning egalaridir. Sarroj boshqa bir tasnifda to'rtga ayirib ko'rsatgan: 1. Rivoyat ilmi: ishonchli olimlarning siqa roviylardan naqil qilgan ilmlari. 2. Diroyat ilmi: fiqh va ahkomni anglatgan ilm. 3. Qiyos va nazar ilmi: jadal ilmi orqali bid'at ahlidan dinni himoya qilish ilmi. 4. Haqiqatlar ilmi. Tasavvuf: butun ilmlarning mohiyatini tashkil qilgan eng qimmatli ilm. Sarroj bu yerda qiyos va jadal ilmidan kalom ilmini nazarda tutadi. Keltirilgan tasnifga ko'ra hadis, fiqh, kalom va tasavvuf eng muhim ilmlar bo'lib, tasavvuf eng ahamiyatlisi deb keltirmoqda. Bu yerda Sarroj yashagan davrda haqiqatda ilmlar tasnifi bo'yicha yondoshuvlar shu ko'rinishda bo'lganmi degan savol tug'iladi. Uning zamondoshi Muhammad Xorazmiy (vaf. 977) ilmlarni ikki kategoriyaga ajratadi va ikkisida ham tasavvufni qayd etmaydi. 1. Ulumish sharia: fiqh, kalom, nahv, Qur'on ilmlari va hadis. 2. Ulumul ajam: falsafa, mantiq, tib, astronomiya kabi boshqa millatlar-

dan olingan ilmlar (Ebû Abdullah Hârizmî, 1930:3). Buni tasavvufning dastlabki davrlarda amaliy faoliyat bo'lgani va shu jihati bilan bir muddat "fiqhi vijdoniy" sifatida fiqhning tarkibida bo'lgani bilan izohlash mumkin. Ammo Sarroj bu xil anglatishdan ko'ra ochiq holatda tasavvufni islom bilimlari orasida o'z sohasi, metodi va g'oyasiga ega eng ustun ilm sifatida qat'iy zikr qilgan. Uning bu qat'iyligini o'z sohasida yetuk darajada bo'lgani bilan baholash to'g'ri bo'ladi. Tanqidlarga uchragan shatahot, samo, vajd, jazba va fano kabi tushunchalarni faqatgina tasavvuf ahlidan bo'lgan va bu sohada yuksak martabadagi insongina muhokama qilishga haqli deb hisoblaydi. Xuddi ilmi zohirni anglamagan sufiyga fiqh mutaxassislariga murojaat qilish tavsiya qilinganidek.

Mumtoz davr mutasavviflaridan sanalgan Abulhasan Ali bin Usmon Hujviriyy "Kashful Mahjub" asarining "Shariat va haqiqat" bobida bu ikki ilmning birligiga ishora qiladi. Ikkiga ayirganlarni esa tanqid qilib, shunday deydi: "Sufiylar bu ikki so'zni zohiriy holatni quvvatlash va botiniy, ichki holatda Haqqa sodiq bo'lish ma'nosida qo'llaydilar. Bu masalada ikki xil adashuvchilar bor. Ba'zi taqlidchi din ulamolari shariat bilan haqiqat o'rtasida farq yo'q, shariatda haqiqat bor va haqiqatda shariat bor, deydilar. Ikkinchi toifa adashuvchilar – zindiqlar aytadilarki, haqiqat shariatsiz ham yashay oladi. Ularning fikricha, haqiqat bor joyda shariat yo'qolar va shariat bor joyda haqiqat yo'qolar emish... Shariat haqiqatsiz bo'lar ekan u riyodir, agar haqiqat shariatsiz ekan nifoqdir" (Abul Hasan Ali bin Usmon Hujviriyy, 2007:226). Hujviriyy fiqh va tasavvuf munosabatini shariat va haqiqat deb atagan. Ikkisini bir biridan ajratmagan holda mukammal moslik deb atagan.

Mumtoz tasavvuf vakillari yozgan asarlarda shariat va tasavvufning "oltin nuqta"sini topishga urinishlari shar'iy tanqidlarni oldini olishga qaratilgan edi. Buning sababi tasavvufda hijriy uchinchi asr o'rtalaridan e'tibo-

ran qo'llanila boshlangan "sahv" va "sukr" atamaları bilan bog'liq tortishuvlardir. Bu tortishuvlar nafaqat faqihlar tomonidan balki tasavvuf vakillari tomonidan ham eng ko'p muhokama qilingan mavzular bo'ldi. "Sukr" konsepsiyasi asoschisi Boyazid Bistomiy ilohiy ishq, Allohda fano bo'lish va o'zidan kechish kabi fikrlarni ilgari surgan bo'lsa, Junayd Bag'dodiy "sahv" konsepsiyasi orqali o'zida va tamkinli bo'lish kabi g'oyalari bilan tasavvufning ikki ustunini bino qildilar. Ammo Junayd Bag'dodiy yaratgan yo'l ko'proq mashhurlik va muvaffaqiyatga uchradi. Buning boisi esa, shariat va haqiqat o'rtasida bir bog' qurgani bilan o'lchanadi. Junayd Bag'dodiyning ixtiloflarni yuzaga keltirgan samo, shatahot, jam', sukr kabi tasavvuf atamalaridan shar'iy doirada foydalanishi natijasida sunniy tasavvuf keng rivojlandi. Natijada bir qator tanqidlarning oldi olinishi bilan birga tasavvufning ichida ayrim tanqidga uchragan atamalarning mo'tadil jufti yuzaga keldi. Masalan, uzlat va suhbat, faqrlik va boylik, sayr va safar, tavakkul. Sufiylarning uzlat qilishlari bilan bog'liq tanqidlarni cheklash maqsadida suhbat metodi qo'llanilishi naqshbandiylik kabi tariqatlarning asosiga aylandi. Ma'lumki, naqshbandiylikda shayx o'z shogirdlarini uzlat bilan emas suhbat metodi bilan rivojlantirishga katta ahamiyat qaratadi. Hojagon naqshbandiylikdagi "Suhbat dar anjuman" rashxasining asl mohiyati ham shunga qaratilgan edi.

XULOSA

Ayrim olimlar fiqh va tasavvufni islom bilimlarining ichida bir maqsadga qaratilgan tashqi va ichki qismdan tashkil topgan yagona ilm sifatida ko'rganlar. Ayrimlar esa ikki

xil vazifani bajaruvchi alohida soha sifatida qaraganlar. Ammo keyingi davrlarda ilmlar tasnifi jarayonida fiqh alohida bilim sohasi sifatida amaliy hukmlar bilan shug'ullanishga o'tdi. Sufiylar esa keng ma'nodagi fiqhning bunday tor doiraga olinishidan norozi bo'ldilar. Fiqhning bunday tarzda faqatgina zohiriy hukmlar bilan chegaralanishi inson qalbini qattiqlashishiga sabab bo'lishini ta'kidlaganlar. Bu borada sufiylar faqihlarni qalb masalasiga e'tibor bermaslikda aybladilar. Shu joyda "fiqhu zohir" va "fiqhu botin" atamasi yuzaga keldi. Ammo shu o'rinda ta'kidlash kerakki ibodatlarga aloqador ahkom oyatlarida ham jismga ham qalb amallariga teng xitob etilganini ko'rish mumkin. Shu jihatdan zohiriy hamda botiniy fiqh doim barobar qo'llanilishi maqsadga muvofiqligi ko'rinadi.

Faqatgina botiniy fiqh bilan chegaralanuvchi yoki zohiriy fiqhni pisand qilmagan ayrim sufiylik davosidagi kishilar faoliyati natijasida tasavvufga nisbatan e'tirozlar shakllandi. Klassik davr mutasavviflari esa tasavvufga yod bo'lgan jihatlarni bu soha doirasidan chiqarish maqsadida chuqur tahlilga asoslangan mumtoz asarlar yaratib, keyinchalik sunniy tasavvuf atamasining yuzaga kelishiga zamin yaratdilar. Natijada asl tasavvufning mohiyatini ko'rsatuvchi manbalar vositasida tasavvufning fiqh bilan uzviy aloqadorligini ilmiy asosda ko'rsatib berishga imkon tug'ildi. Tasavvuf va fiqh munosabati usulda ham furu'da ham birdek ahamiyat kasb etadi. Ular o'rtasida ziddiyat bor degan qarash egalari bu ikki sohaning bir ildizdan shakllangani va maqsadi bir ekanini anglashlari islom bilimlari sohasida yangi yutuqlarni yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurrahmon Ibn Xaldun (1980). Muqaddima. – Qohira: Matbau shari'a. 1980. –B.521.
2. Abu Mansur Moturidiy (2023). Ta'vilotul Qur'on (J. 25-26). Toshkent: Hilol-Nashr.
3. Abu Nasr Sarroj (1960). Luma'. Bag'dod: Darul kutubul muyassar.
4. Abu Tolib Makkiy (2007). Qutul qulub (J. 2). Beyrut: Dâru'l Kutubi'l İlmiyye, 2. Basım.
5. Ali Sâmin Neşşâr, Neş'etü'l fikri'lfelsefi fi'l İslâm. Kahire: Dâru'l Me'ârif.

6. Alouddin Samarqandiy, Abu Bakr Muhammad Akbar. Sharhi ta'vilotul Qur'on. Sulaymoniya kutubxonasi. Madina bo'limi.
7. Başer.H. (2015). Sünni Tasavvufun Teşekkül Sürecinde Şeriat-Hakikat İlişkisi Sorunu (Hicrî III. ve IV. Yüzyıllar). Doktora Tezi. İstanbul. İstanbul Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
8. Belhaj A. (2013). // Legal Knowledge by Application: Sufism as Islamic Legal Hermeneutics in the 10th/12th Centuries. Studia Islamica 108. Koninklijke Brill NV, Leiden.
9. Dursun.A. (2020). Tasavvuf Fıkıh İlişkisi. Doktora Tezi. İstanbul. Marmara Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü.
10. Ebû Abdullah Hârizmî (1930). Mefâtihu'l ulûm, Yay. Haz. Osman Halil.
11. Ebü'l Abbâs Ahmed bin Ahmed Fâsî Zerrûk (2005). Kavâ'idü't tasavvuf, thk. Abdülmecîd Hayâlî. Beyrut: Dâru'l kutubi'l ilmiyye.
12. Ibn Taymiya Abul Abbos Taqiyuddin Ahmad bin Abdulhalim bin Majdiddin (2005). Majmuu fatavo. Qohira: Darul vafo.
13. Ibn Xaldun Abu Zayd Valiyuddin Abdurahmon bin Muhammad (1996). Shifous soil li tahzibil masoil. Damashq: Darul fikr.
14. Imom Buxoriy (1992). Jome'us sahih (J. 4). Toshkent: Qobuslar bosh tahririyati.
15. Imom Rabboniy (2023). Maktuboti Rabboniy. Toshkent: Factor press.
16. Karaman.H. (2019). Tasavvuf Şeriatsız Olmaz, İstanbul: İz yayıncılık.
17. Muslim (2024). Sahihi Muslim. Toshkent: Hilol nashr. 69-hadis.
18. Mustafa Şeref Aydın (2023). Tasavvuf Fıkıh İlişkisi. Ankara: Fecr Yayınları.
19. Nizomuddin Shoshiy (2016). Usulush Shoshiy. // Tarjima va izohlar muallifi: A. Ahmadaliyev // o'zbek tiliga akademik tarjima. Toshkent: Movarounnahr.
20. Serrâc (2016). Lüma' (İslam Tasavvufu). Turkiye.
21. Serrâc, Lüma' (2020). Ankara: Yayin evi.
22. Tarj. Ali Kamol (1998). Sharhul aqoid. Bayrut: Darul ihya atturosul arobiy.
23. Usmonov I. (2022) Tasavvufning shakllanish bosqichida fiqh ilmi bilan munosabati (J. 3). № 1: Renecsansa Sentralnoy Azii.
24. Yusuf Şavqiy Yavuz (2011). İlham. İstanbul: Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi yayın evi.

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTINING “ISLOM MA’RIFATI” JURNALI

Mazkur nashr oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarining professor-o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil izlanuvchilari, magistrantlari, talabalari hamda kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Tahririyatning fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo'lmasligi mumkin.
Jurnaldan iqtibos olinganda manba qayd etilishi shart.

Bosh muharrir:

Uyg'un G'AFUROV

Bosh muharrir o'rinbosari:

Soatmurod PRIMOV

Mas'ul kotib:

Sirojiddin ShODMONOV

Xorijiy tildagi matnlar muharrirlari:

Saodat VALIYEVA

Sirotilloxon MUHAMMADSOLIYEV

Sahifalovchi-dizayner:

Suhayl MUHAMMAD

Manzlimiz: 100002, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri,
Olmazor tumani, Zarqaynar 18-berk ko'cha, 47-uy.

Tel.: (+99871) 227-42-37

Web: <https://oliymahad.uz/> E-mail: islom-instituti@umail.uz

“MUHARRIR NASHRIYOTI” MChJ bosmaxonasida bosildi.

Bosishga 09.04.2025 yil ruxsat etildi. Bichimi 60x84 1/8.

Bosmaxona manzili: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani,
20A-mavze, So'galli ota ko'chasi, 5-uy.

E-mail: muharrir@list.ru



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

**Murojaat uchun:
71 227 42 37**



№1 2025